Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensi... DOI: 10.5281/zenodo.24316915

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "инфляцион таргетлаш режимига босқичма-босқич ўтиш орқали пул-кредит сиёсатини такомиллаштириш тўғрисида"ги 2019 йил 18 ноябр ПФ-5877-сон Фармони.
2. "Ўзбекистон Республикаси Марказий банки тўғрисида"ги Ўз.Р. Қонуни, 2019 й. ноябр.
3."Ўзбекистоннинг инфляцион таргетлаш режимига ўтиши". Муайяд аль Расаси, Экель Кабезон. ХВФ тадқиқот иши. 2022 й.

CHORVACHILIK KORXONALARI FAOLIYATIDAGI O'ZGARISHLARNI O'RGANISHDA NARXLAR INDEKSI

D.X.Iskandarov
TDIU Andijon fakulteti
"ijtimoiy gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi,
Abduraximova Jayrona Arabboy qizi
TDIU Andijon fakulteti 1-bosqich talabasi
Shavkatov Jasurbek Mansurbekovich
TDIU Andijon fakulteti 1-bosqich talabasi

Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go'sht hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda ushbu sohada zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning turlarini kengaytirish bo'yicha tub islohotlar amalga oshirildi. Bu sa'y-harakatlar natijasini har bir chorvador o'z faoliyatida sezmoqda va his etmoqda.

Xususan, chorvachilik tarmog'i oxirgi olti yilda islohotlarga yuz tutdi. O'tgan davrda agrar tarmoqda katta o'zgarishlar, yangilanishlar bo'ldi. Ko'p yillar davomida chorvadorlarni o'ylantirib, tashvishga solib kelgan muammolar qisqa fursatda hal etildi, ularning xohish-istaklari, orzu-umidlari ro'yobga chiqa boshladi.

Ilgarlari 200 bosh nasilli mollarni boqayotgan fermerlarga qoyil qolishardi, hozir fermer va klasterlarimiz 10 minglab nasilli mollar, 100 minglab ko'y echkilar parvarishlab, elimiz dasturxoniga sifatli sut va go'sht mahsulotlarini yetkazib bermoqda. Ayniqsa, bozordagi narxlar barqarorligini ta'minlab beryapti. Bunday ajoyib o'zgarishlar faqat ayrim chorvadorlar faoliyatida emas, balki minglab mulkdorlar hayotida ham yuz berdi.

Natijada chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar soni ortib, chorvachilik komplekslari tomonidan tirik vaznda ko'plab tonna go'sht va sut mahsulotlari yetishtirilishiga erishilyapti. Eng muhimi, bu sohada yangi ish o'rinlari yaratilib, ming-minglab yoshlar xorijga ish izlab ketishdek og'ir muammodan xolos bo'lmoqda.

Published: 17.05.2024

Cite this article: D.X. Iskandarov, Abduraximova Jayrona Arabboy qizi, Shavkatov Jasurbek Mansurbekovich (2024). Chorvachilik korxonalari faoliyatidagi o'zgarishlarni o'rganishda narxlar indeksi. Emro Science and Education, 1(3). https://doi.org/10.5281/zenodo.24316915

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

2022 yil 8 fevral kuni qabul qilingan “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori sohada boshlangan islohotlarning uzviy davomi sifatida mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan qator istiqbolli chora-tadbirlarni belgilab berdi. Buni sohada faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari kayfiyatida ham sezish mumkin.

Shuningdek, chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini ko‘paytirish, shuningdek, aholining o‘z xonadonida chorva mollari boqishini tashkil etish va chorva ozuqa bazasiga bo‘lgan talabni qondirish borasida qulayliklar, imtiyozlar, moliyaviy ko‘mak va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda respublikada jami 18167 ta chorvachilik xo‘jaliklari mavjud bo‘lib, shundan qoramolchilik yo‘nalishida 7614, qo‘y va echkichilik 3263, yilqichilik 142, tuyachilik 52, parrandachilik 1298, baliqchilik 4829, asalarichilik 715 ta va quyonchilik 254 tani tashkil etmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarori ham ushbu sohada keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi.[18]

Natijada 2022 yilda chorvachilikda umumiy qiymati 9,7 trln so‘mlik 2031 ta loyihalar amalga oshirilib, 160 mingga yaqin doimiy va mavsumiy yangi ish o‘rinlari yaratildi. Joriy yilning o‘zida esa 915,4 mlrd. so‘mlik 406 ta loyihalar ishga tushirildi.

E’tiborli jihati, ushbu Dastur doirasida paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 1,3 trln. so‘mlik 43 ta chorvachilik komplekslari tashkil etilib, 26 ming boshga yaqin qoramollar parvarishi yo‘lga qo‘yildi. 2022 yilda 110 ta go‘sht va 139 ta sut jami 249 mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida 19,6 ming bosh chorva mollari tarqatib berildi.

Chorvachilik korxonalarining faoliyatidagi o'zgarishlarni o'rganishda narxlar indeksining ta'siri muhim bo'lib, bu indeks chorvachilik sohasidagi narx o'zgarishlarini tahlil qilish, inflatsiyani belgilash va mamlakat iqtisodiy holatini tushunishda yordam beradi. Narxlar indeksining chorvachilik korxonalarining faoliyatidagi o'zgarishlarni o'rganishdagi muhim roli sifatida quyidagilarni ko‘rsatishimiz mumkin:

Chorvachilik korxonalarining xarajatlarini ta'sir qilishi - chorvachilik korxonalarining xarajatlarini tushunishda muhim hisoblanadi. Agar umumiy narxlar o'sib borsa yoki ma’lum darajada o'zgarib ketadigan bo'lsa, korxonalar mahsulotlar uchun o'z xarajatlarini ko'payishini hisobga olishlari mumkin bo‘ladi.

Chorvachilik mahsulotlarining narxlarini tahlil qilish - chorvachilik korxonalarining faoliyatini o'rganishda, chorvachilik mahsulotlarining narxlari va ularning o'zgarishlari tahlil qilinadi. Narxlar indeksi bu tahlillar uchun muhim ma'lumotlar ta'minlaydi.

[18] O‘Zbekiston Respublikasida Chorvachilik Sohasi Va Uning Tarmoqlarini Rivojlantirish Bo‘Yicha 2022 — 2026-Yillarga Mo‘Ljallangan Dasturni Tasdiqlash To‘G‘Risida

Inflatsiyani aniqlash - inflatsiyani o'rganishda yordam beradi. Agar narxlar indeksining o'sishi inflatsiya ko'rsatkichi bo'lsa, bu chorvachilik korxonalarining faoliyatida o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini bildiradi.

Iqtisodiy faoliyatga o'z ta'sirini ko'rsatish - chorvachilik korxonalarining iqtisodiy faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatishda yordam beradi. Mahsulotlar va xizmatlar narxlari chorvachilik korxonalarining daromadi va faoliyatini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi.

Mijozlar bo‘yicha tahlillar - chorvachilik mahsulotlarini sotish bo'yicha mijozlar boyicha tahlillarni o'rganishda yordam beradi. Mijozlar narxlarining o'zgarishlariga qanday ta'sir ko'rsatishlarini tushunish uchun foydalaniladi.

Investitsiyalarni o'rganish - chorvachilik korxonalarining investitsiyalari va kapital investitsiyalari ko'rsatkichi sifatida narxlar indeksi ham foydalaniladi. Agar korxonalar o'sishi sababli investitsiyalar o'ssa, bu faoliyatni ko'rsatish uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Xalqaro savdo boyicha ta'sir - chorvachilik korxonalarining xalqaro savdo harakati boyicha ham ta'sir ko'rsatadi. Agar mamlakatdagi umumiy narxlar o'zgarib qolsa, bu xalqaro savdo bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Korxonalar orasida raqobat - korxonalar orasida ham raqobat ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi. Agar bir chorvachilik korxonasi o'z mahsulotlarini qimmatlab sotish mumkinligini aniqlasa, bu korxonaning faoliyatidagi o'zgarishlar uchun alomat bo'lishi mumkin.

Narxlar indeksi, chorvachilik korxonalarining iqtisodiy faoliyatini o'rganishda faol tahlil qilishda yordam beradi. Bu indeksning o'zgarishlarini tahlil qilish, chorvachilik korxonalarining faoliyatidagi muammolar va qulayliklar haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishda muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni// Xalq so‘zi, 29.01.2022-yil. TARMOQLAR VA SOHALAR
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son farmoni// Xalq so‘zi, 24.10.2019-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021-yil 11-avgust // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2021-yil, №8. https://lex.uz
4. Маркова А.И., Афанасев В.Н. Статистика селского хозяйства: Учеб. пособие. – М.: Финанси и статистика, 2003 й. 272 с.

IQTISODIY O‘SISHDA INNOVATSION FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIU Andijon filiali,
“Ijtimoiy-gumanitar fanlari” kafedrasi dotsenti.
Abduqayumov Jalolidin Jo‘rabek o‘g‘li
TDIUAF, 1-kurs, AIQT-60/23 yo‘nalishi talabasi.

Bugungi tezkor o`zgarish va yangilanishlar davrida kutilayotgan qisqa va uzoq istiqbodagi turli vaziyatlarga har tomonlama puxta tahlil asosida oqilona yechimga tayangan holdagina moslashish mumkin. Xo`jalik faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zarur axborotni olish, aniq tadbir, tashabbus asosida omillarning eng maqbul kombinatsiyalarini ishga tushirish masalasi hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir. Mazkur muammo barcha sohalarda eng ustuvor ahamiyatga ega ekanligini chuqur anglagan holda faoliyat olib borayotgan sub`ektlar salmoqli yutuqlarni qo`lga kiritayotgani hammaga ma`lum. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida “Mulkdor mulkiga o`z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart”[1] deb belgilangan. Ushbu me`yor yurtimizdagi barcha jismoniy va huquqiy shaxslarni mavjud qonunchilik talablariga so`zsiz itoat etishga undaydi.

Bunda eng avvalo, amaldagi huquqiy mezonlarni professional darajada o`rganib borish zarur. Aynan shu munosabatlarda bir tarafdan xo`jalik ichki imkoniyatlarining oqilona tahlili muhim ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tarafdan hamkor sub`ektlar, raqobatchilar va iste`molchilarning maqomi (pozitsiyasi) aniq asoslarda o`rganib borilishi shart. Mazkur masala juda tez va shaffof usulda, muntazam, barcha tahliliy variant va parametrlardan foydalanib yuritilishi, har qanday xo`jalik yurituvchining kun tartibidagi asosiy ish ekanini e`tirof etamiz.

Lekin bir tarafdan, bozor munosabatlari har qanday tovar va xizmatlarni yuqori sifat, keng assortiment, qulay narxlarda taqdim etish, ayni vaqtda erkin raqobatli munosabatda bo`lishni talab etsa, ikkinchi tarafdan barqarorlik kafolati sifatida, innovatsion faollik bilan ish olib borish taqozo etilmoqda.

Bu har ikki vaziyat xo`jalik munosabatlarining olg`a rivojlanish va taraqqiyotini ta`minlashning ishonchli imkoniyatini bersa-da, mutlaqo teskari mutanosiblikni tasvirlaydi. Sababi, sof raqobatli muhitdagi sub`ekt narxni sozlay olmaydi, muqobil faoliyatdan oladigan foydalar farqi nolga tengligidan o`z sohasini o`zgartirishdan manfaat ko`rmaydi. Uning moliyaviy holati yuqori fan va kapital sig`imli o`zgarishlarni birdan qabul qilishga yo`l qo`ymaydi.

Monopol ish olib boruvchi sub`ekt esa, nafaqat ishlab chiqarish hajmi, balki narxni ham to`la sozlash ustunligini kasb etgani bois, katta foyda ko`rib ishlashi